“O‘ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК “УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК

TEXNIK TOPSHIRIQNOMA

№ 1690
2026 yil «9» «noyabr»

«O‘zsanoatqurilishbank» ATB ehtiyojlari uchun Microsoft 365 E5 without Audio Conferencing litsenziyalarini xarid qilish bo‘yicha TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent – 2026-yil

MUNDARIJA

1. UMUMIY MA’LUMOTLAR **3**
1.1. Loyiha nomi 3
1.2. Buyurtmachi haqida ma’lumot 3
1.3. Ijrochi 3
1.4. Loyihani amalga oshirish uchun asos 3
1.5. Moliyalashtirish manbai 3
1.6. To‘lov tartibi 3
1.7. Loyihani amalga oshirish muddatlari 3
2. LOYIHANI AMALGA OSHIRISHNING MAQSADI VA VAZIFALARI **4**
2.1. Loyihaning vazifasi 4
2.2. Loyihani amalga oshirishdan maqsad 4
3. TEXNIK TALABLAR **4**
3.1. Microsoft 365 E5 without Audio Conferencing litsenziyalariga qo‘yiladigan texnik talablar 4
4. KAFOLAT TALABLARI **6**
5. NORMATIV TALABLAR **6**
6. ISHTIROKCHILARGA VA YETKAZIB BERISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR **7**

1. UMUMIY MA’LUMOTLAR.

1.1. Loyiha nomi.

«O‘zsanoatqurilishbank» ATB ehtiyojlari uchun Microsoft 365 E5 without Audio Conferencing litsenziyalarini xarid qilish loyihasi.

Mazkur texnik topshiriq «O‘zsanoatqurilishbank» ATB ehtiyojlari uchun Microsoft 365 E5 without Audio Conferencing litsenziyalarini xarid qilish, ularni Buyurtmachining amaldagi Microsoft 365 Tenant muhitida faollashtirish, foydalanuvchilarga tayinlash hamda ulardan foydalanish uchun qo‘yiladigan texnik talablar va yetkazib berish tartibini belgilaydi.

1.2. Buyurtmachi haqida ma’lumot.

Buyurtmachi: “O‘zsanoatqurilishbank” ATB;
Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy;
Telefon: (998-78) 777-77-55 (7054);
MFO: 00440;
STIR: 200 833 707;
Bank nomi: “O‘zsanoatqurilishbank” ATB huzuridagi OPERU;
Elektron pochta manzili: info@sqb.uz.

1.3. Ijrochi

Mazkur loyiha bo‘yicha ijrochi eng maqbul taklifni tanlash natijalariga ko‘ra belgilanadi.

1.4. Loyihani amalga oshirish uchun asos

Bankning korporativ axborot texnologiyalari muhitini rivojlantirish, xodimlar o‘rtasida samarali axborot almashinuvini tashkil etish, hamkorlik va jamoaviy ishlash imkoniyatlarini kengaytirish, axborot xavfsizligini ta’minlash hamda korporativ dasturiy xizmatlardan markazlashgan holda foydalanish zarurati mazkur loyihani amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

Shuningdek, Bank faoliyatida zamonaviy raqamli hamkorlik vositalaridan foydalanish, ish jarayonlarini avtomatlashtirish va xodimlarning mehnat samaradorligini oshirish maqsadida Microsoft 365 E5 without Audio Conferencing litsenziyalarini xarid qilish zarurati yuzaga kelgan.

1.5. Moliyalashtirish manbai

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning o‘z mablag‘lari loyihani moliyalashtirish manbai hisoblanadi.

1.6. To‘lov tartibi

Buyurtmachi shartnoma bo‘yicha to‘lovlarni quyidagi tartibda amalga oshiradi:

- shartnoma umumiy qiymatining **30 foizi** oldindan to‘lov (avans) sifatida, shartnoma imzolangan kundan boshlab **10 (o‘n) bank ish kuni** ichida to‘lanadi;
- qolgan **70 foizi** yetkazib berish va nazarda tutilgan ishlar to‘liq bajarilib, Tomonlar tomonidan tegishli dalolatnoma imzolangandan so‘ng **10 (o‘n) bank ish kuni** ichida to‘lanadi.

1.7. Loyihani amalga oshirish muddatlari

Microsoft 365 E5 without Audio Conferencing litsenziyalarini yetkazib berish va Buyurtmachining Microsoft 365 Tenant muhitida faollashtirish — shartnoma imzolangan kundan boshlab 15 (o‘n besh) ish kuni.

2. LOYIHANI AMALGA OSHIRISHNING MAQSADI VA VAZIFALARI.

2.1. Loyihaning vazifasi.

Mazkur loyiha Buyurtmachining korporativ dasturiy muhitini rivojlantirish, xodimlarni zamonaviy ish unumdorligi, hamkorlik, kommunikatsiya, axborot xavfsizligi va ma’lumotlarni boshqarish vositalari bilan ta’minlashga mo‘ljallangan.

Loyiha doirasida Microsoft 365 E5 without Audio Conferencing litsenziyalarini xarid qilish, ularni Buyurtmachining amaldagi Microsoft 365 Tenant muhitida faollashtirish va tegishli foydalanuvchilarga tayinlash nazarda tutiladi.

Mazkur litsenziyalar tarkibida Microsoft Teams platformasi orqali xodimlar o‘rtasida korporativ muloqot, audio va video konferensiyalar, jamoaviy hamkorlik, fayl almashish va onlayn yig‘ilishlarni tashkil etish imkoniyatlari, shuningdek, Microsoft 365 paketiga kiruvchi boshqa dasturiy vositalardan foydalanish ko‘zda tutiladi.

2.2. Loyihani amalga oshirishdan maqsad.

Loyihaning asosiy maqsadi Buyurtmachining korporativ dasturiy infratuzilmasi imkoniyatlarini kengaytirish, xodimlarning ish unumdorligini oshirish, jamoaviy hamkorlik va axborot almashinuvi jarayonlarini takomillashtirish hamda axborot xavfsizligi darajasini oshirishdan iborat.

Loyihani amalga oshirish natijasida quyidagi imkoniyatlarni ta’minlash ko‘zda tutiladi:

- audio va video konferensiyalarni tashkil etish va o‘tkazish;
- xodimlar o‘rtasida individual va guruhli chat orqali axborot almashish;
- jamoalar va kanallar tashkil etish;
- hujjatlar va fayllarni almashish;
- ekran va taqdimotlarni namoyish etish;
- onlayn yig‘ilishlarni rejalashtirish va boshqarish;
- korporativ hamkorlik jarayonlarini yagona platformada tashkil etish.

3. TEXNIK TALABLAR.

3.1. Microsoft 365 E5 without Audio Conferencing litsenziyalariga qo‘yiladigan texnik talablar.

Microsoft CSP (Cloud Solution Provider) dasturi doirasida Microsoft 365 E5 without Audio Conferencing litsenziyalarini yetkazib berish hamda ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan shartlar asosida Microsoft bulutli xizmatlaridan foydalanish huquqini taqdim etish nazarda tutiladi.

Microsoft 365 E5 without Audio Conferencing litsenziyasi korporativ unumdorlik, hamkorlik, kommunikatsiya, axborot xavfsizligi, identifikatsiya va qurilmalarni boshqarish hamda tahliliy imkoniyatlardan foydalanishni ta’minlovchi kengaytirilgan funksiyalarni o‘z ichiga olishi lozim.

1-jadval – Microsoft 365 E5 without Audio Conferencing litsenziyalariga qo‘yiladigan texnik talablar.

T/r	Parametr	Talab
1	Mahsulot nomi	Microsoft 365 E5 without Audio Conferencing
2	Litsenziyalash dasturi	CSP – New Commerce Experience (NCE)
3	Litsenziya turi	User Subscription License
4	Litsenziyalash modeli	Foydalanuvchi uchun
5	Obuna muddati	12 oy
6	Til	Multilanguage
7	Foydalanish hududi	Worldwide
8	Litsenziyalarni tayinlash imkoniyati	Microsoft 365 Admin Center orqali
9	Yetkazib berish usuli	Elektron shaklda
10	Ishlab chiqaruvchi	Microsoft
11	Talab etiladigan miqdor	100 ta litsenziya

12	Unumdorlik va hamkorlik	Microsoft Word; Microsoft Excel; Microsoft PowerPoint; Microsoft Outlook; Microsoft OneNote; Microsoft Teams; Exchange Online; SharePoint Online; OneDrive for Business
13	Xavfsizlik	Microsoft Defender for Office 365 Plan 2; Microsoft Defender for Endpoint Plan 2; Microsoft Defender for Identity; Microsoft Defender for Cloud Apps; Microsoft Purview Compliance
14	Qurilmalar va identifikatsiyani boshqarish	Microsoft Entra ID P2; Microsoft Intune; Enterprise Mobility + Security E5
15	Audio Conferencing	Litsenziya tarkibiga kirmaydi

Microsoft Teams platformasiga qo‘yiladigan funksional talablar:

Microsoft 365 E5 without Audio Conferencing litsenziyasi tarkibidagi Microsoft Teams quyidagi funksional imkoniyatlarni ta’minlashi lozim:

- foydalanuvchilar o‘rtasida individual va guruhli chat tashkil etish;
- audio va video konferensiyalarni tashkil etish va o‘tkazish;
- onlayn yig‘ilishlarni rejalashtirish, ularga ishtirokchilarni taklif qilish va boshqarish;
- yig‘ilish davomida ekran, alohida dastur oynasi va taqdimotlarni namoyish etish;
- jamoalar (Teams) va kanallar (Channels) yaratish hamda ularni boshqarish;
- hujjatlar va boshqa fayllarni almashish;
- yig‘ilish ishtirokchilarining huquqlarini boshqarish, mikrofon va kameradan foydalanishni nazorat qilish;
- kompyuter va mobil qurilmalar orqali platformadan foydalanish;
- korporativ foydalanuvchi hisoblari orqali autentifikatsiyadan o‘tish;
- administrator tomonidan foydalanuvchilar va ularning litsenziyalarini markazlashgan holda boshqarish.

Microsoft Teams tarkibidagi audio va video konferensiya imkoniyatlaridan foydalanish nazarda tutiladi. Bunda telefon tarmog‘i orqali konferensiyaga qo‘ng‘iroq qilish (PSTN dial-in) imkoniyatini taqdim etuvchi Audio Conferencing xizmati mazkur xarid predmetiga kirmaydi.

Microsoft 365 xizmatlariga qo‘yiladigan umumiy talablar:

Microsoft 365 E5 without Audio Conferencing litsenziyalari tarkibidagi xizmatlar ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan funksional imkoniyatlarga muvofiq ishlashi va Buyurtmachining Microsoft 365 Tenant muhitida foydalanish uchun mavjud bo‘lishi lozim.

Litsenziyalar Buyurtmachining amaldagi Microsoft 365 Tenant muhitida faollashtirilishi, foydalanuvchilarga tayinlanishi va obuna muddati davomida foydalanish imkoniyati ta’minlanishi kerak.

Yetkazib beruvchiga qo‘yiladigan talablar:

- litsenziyalarni Buyurtmachining amaldagi Microsoft 365 Tenant muhitida faollashtirish;
- litsenziyalarni belgilangan foydalanuvchilarga tayinlashda amaliy yordam ko‘rsatish;
- litsenziyalash va Microsoft 365 xizmatlaridan foydalanish bilan bog‘liq texnik maslahatlar berish;
- obuna amal qiladigan davr mobaynida litsenziyalash masalalari bo‘yicha birinchi darajali texnik qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash;
- yuzaga kelgan texnik hodisalarni zarur hollarda Microsoft kompaniyasiga eskalatsiya qilish;
- CSP obunasini boshqarish va litsenziyalardan foydalanish bo‘yicha maslahatlar berish.

4. KAFOLAT TALABLARI.

Microsoft 365 E5 without Audio Conferencing litsenziyalarining amal qilish muddati 12 oyni tashkil etadi.

Yetkazib beruvchi litsenziyalarning amal qilish muddati davomida quyidagilarni ta’minlashi shart:

- litsenziyalarning ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan tartibda va qonuniy asosda taqdim etilishini ta’minlash;
- litsenziyalarning Buyurtmachining Microsoft 365 Tenant muhitida to‘g‘ri faollashtirilishini ta’minlash;
- litsenziyalardan foydalanish bilan bog‘liq texnik muammolar yuzaga kelganda texnik qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish;
- litsenziyalash, obuna va foydalanuvchilarga litsenziyalarni tayinlash masalalari bo‘yicha maslahat berish;
- zarur hollarda yuzaga kelgan muammolarni Microsoft kompaniyasiga eskalatsiya qilish;
- litsenziyalar amal qilish muddati davomida ulardan foydalanish huquqining uzluksizligini ta’minlash.

5. NORMATIV TALABLAR.

Litsenziyalarni yetkazib berish va ulardan foydalanish O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek, Microsoft kompaniyasining litsenziyalash siyosati, foydalanish shartlari va tegishli normativ-texnik talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

Yetkazib beruvchi Microsoft kompaniyasining litsenziyalash shartlari va CSP dasturi doirasida belgilangan talablariga rioya etilishini ta’minlashi shart.

6. ISHTIROKCHILARGA VA YETKAZIB BERISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR.

Yetkazib beriladigan litsenziyalar mazkur texnik topshiriqda ko‘rsatilgan barcha texnik va funksional talablarga to‘liq muvofiq bo‘lishi lozim. Texnik talablarga mos kelmaydigan yoki foydalanish huquqi tegishli tartibda taqdim etilmagan litsenziyalar qabul qilinmaydi.

Litsenziyalar narxiga uni Buyurtmachining omborigacha yetkazib berish xizmati xarajatlari to‘liq kiritilgan bo‘lishi lozim.

Taklif etilayotgan litsenziyalar ishlab chiqaruvchining rasmiy kanallari orqali yetkazib berilishi, yangi, avval foydalanilmagan, qayta tiklanmagan va ekspluatatsiyada bo‘lmagan bo‘lishi, shuningdek, ishlab chiqaruvchining siyosatiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi lozim.

Ishtirokchi zarur litsenziyalarni yetkazib berish va ulardan foydalanish huquqini taqdim etish vakolatiga ega ekanligini distribyutor tomonidan berilgan avtorizatsiya xati (Distributor Authorization Form, DAF) orqali tasdiqlashi lozim. Mazkur hujjat ishtirokchining 1-jadval – “Litsenziyalarga qo‘yiladigan texnik talablar” da ko‘rsatilgan talablarga muvofiq litsenziyalarni yetkazib berish huquqiga ega ekanligini tasdiqlashi kerak.

Boshqaruvi Raisining birinchi o'rinbosari: **A.Ergashev**

kelishuvchilar: V.Krasnov

https://hujjat.sqb.uz/?pin=iB78eJ13&id=e6dedcfd-adde-4d93-8500-e8ab1c827c23